

Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan \_\_\_\_-sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko'rsatuvchi «Xalq banki» \_\_\_\_\_, nomidan Boshqaruvchi \_\_\_\_\_ kelgusida «Bank» deb yuritiluvchi, bir tomonidan va o'z nomidan yoki uning nomidan harakat qiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_, kelgusida «Omonatchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar

### **1. Shartnoma predmeti**

1.1. «Bank» «Omonatchi»dan pul mablag'larini *talab qilib olinguncha* omonat turiga \_\_\_\_\_ hisobvarag'iga \_\_\_\_\_ milliy valyutada *naqd pul yoki naqd pulsizshaklda* qabul qiladi.

1.2 Omonat turining nomi \_\_\_\_\_, topshirayotgan mablag' miqdori \_\_\_\_\_, saqlash muddati omonatchining talabiga ko'ra hisob varaq to'liq yopilgunga qadar, yillik 0% to'lov bilan. \_\_\_\_\_ omonatga omonatchi tomonidan qo'shimcha badal kirim qilishiko'zda tutilgan.

1.3. Omonat hisobvarag'iga pul kiritilish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi.

### **2. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

2.1. Hisoblangan foizlar omonat yopilganda \_\_\_\_\_ omonati shartlaridan kelib chiqib to'lanadi.

2.2. Omonat summasiga foizlar omonat mablag'i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha bo'lgan davrga hisoblanadi. «Omonatchi»ning hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi yoki yozilmaydi.

2.3. «Omonatchi» yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar «Omonatchi»ning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va «Omonatchi» bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish huquqlariga ega.

2.4. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda bank «Omonatchi»ga hisobvaraq ochishni va operatsiyani amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

### **3. Tomonlarning javobgarligi**

3.1. Shartnoma majburiyatları bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **4. Nizolarni hal qilish**

4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni va kelishmovchiliklarni va nizolarni muzokara yo'li bilan hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etiladi.

### **5. Fors major holatlari**

5.1. Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlarida, ya'ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'limgan holatlarda (pul kredit siyosatidagi dinominatsiya, yer qimirlash, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Majburiyatni to'liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo'ladi.

### **6. Boshqa shartlar**

6.1. Shartnomani imzolash orqali omonatchi bank qoidalari va tariflari bilan tanish ekanligini tasdiqlaydi, hamda ularga rioya qilish majburiyatini oladi.

6.2. Bank «Omonatchi» yoki uning vakillari topshirig'iga binoan, bankning omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'ları bilan bank operatsiyalari bo'yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun, taraflarning qo'shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.